



## ICHKI ISHLAR XODIMLARI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINING PSIXODIAGNOSTIKASI

**Fayziyev Muhammad Shukurulloevich**

*IIV Buxoro akademik litseyi huquqshunoslik fanlari o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ichki ishlar tizimi xodimlari kommunikativ kompetentligi omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash mexanizmlari ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kompetentlik, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов коммуникативной компетентности сотрудников системы внутренних дел и совершенствование ее специфических социально-психологических факторов, раскрывая механизмы выявления компонентов социально-психологической компетентности и коммуникативная компетентность сотрудника.*

**Ключевые слова:** *компетентность, социально-психологическая компетентность работника, профессиональная компетентность, компетентность, профессиональная деятельность, профессиональные знания, навыки и квалификация, профессиональные психологические характеристики.*

**Abstract:** *This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of the communication competence of the internal affairs system employees and the improvement of its specific socio-psychological factors, revealing the mechanisms for identifying the components of the socio-psychological competence and the communication competence of the employee.*

**Key words:** *competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, competence, professional activity, professional knowledge, skills and qualifications, professional psychological characteristics*

### KIRISH

Respublikamizda so'nggi yillarda huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ichki ishlar tizimi xodimlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu sohaga doir qonun va qonun osti hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, ichki ishlar tizimi xodimlarlari kasbiy kompetentligini oshirish,



ularning shaxsiy sifatlariga xos bo'lgan xususiyatlarni ro'yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi kasbiy, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida belgilangan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Psixologiyaning metodologik tahlillarida olib borilgan tadqiqotlarning mohiyatini anglash, Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligining muhim omilini tushinishda bir nechta nazariyalarni o'rganishni taqozo etdi:

- kasbiy kompetentlikning faoliyat xarakteri asosida ochib berish (S.G.Vershlovskogo, N.V.Kuzminoy, M.I.Lukyanova, A.K.Markovoy, V.N.Surkov, I.S.Yakimanskoy va boshqalar);

- kasbiy kompetentlikni shaxsiy sifatleri bilan o'rganish (A.P.Bueva, Yu.N.Kulyutkin, P.V.Simonov, P.M.Sherayzina, A.I.Sherbakov);

- kasbiy kompetentlikni ta'lim darajasi bilan bog'liqligi (E.V.Berejnova, A.A.Verbiskiy, I.G.Shaposhnikova, A.A.Orlov, M.N.Pevzner);

kasbiy kompetentlikni madaniyat fenomeni bilan bog'liqligi (T.G.Braje, M.A.Verb, V.V.Kraevskiy, E.N.Shiyanov).

«Kasbiy kompetensiya» tushunchasining mazmuniga zamonaviy tadqiqot yondashuvlarini tahlil qilish asosida shuni xulosa qilish mumkinki, kasbiy kompetensiya mutaxassis shaxsining integrativ xarakteristikasi, shu jumladan, uning kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlaridir.

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, faol va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Nazariy va empirik tadqiqotlar g'oyalariga tayanib, Ichki ishlar tizimi xodimlarining kasbiy shakllanish yo'li va yo'nalishini belgilab beruvchi metodologik g'oya va qarashlarni ajratib olishga imkon beruvchi mezonlarni belgilab olish maqsadga muvofiq.

Bu borada bir qancha olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

«Shakllanish» - falsafiy kategoriya bo'lib, u bir mavjud holatdan ikkinchisiga o'tishni ifodalaydi. Barcha mavjud holatlar shakllangan vaziyat sifatida, uning yuzaga kelganligi esa shakllanganligi sifatida qaraladi [5].

A.V.Makushinning ta'kidlashicha, kasb bu – shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi [7].

Kasb – jamiyatga zarur bo'lgan faoliyatning tarixan yuzaga kelgan shakllaridir. Uni bajarish uchun inson bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga mos keluvchi qobiliyat va kasbiy sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Keltirilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda, aytish mumkinki kasb mehnat faoliyatining paydo bo'lgan shakllari, ularni bajarish uchun inson, albatta, ma'lum bilim





va ko'nikmalarga, maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak. Kasbiy shakllanish – muayyan bir sohani takomillashtirishga qaratilgan bilim, ko'nikmalar majmui. Kasbiy shakllanish – ta'lim olish jarayonida u yoki bu sohaga doir bilim, ko'nikmalar majmui. Kasbiy shakllanganlik – ahamiyatga ega kasbiy natijalarga erishish va faoliyatini yuqori darajada amalga oshirish imkonini beruvchi psixik sifatlari majmuidir.

Kasbiy sifatlari – shaxsning muayyan sohadagi bilim, ko'nikmalari, malakalari majmui va mehnat faoliyatida o'z qobiliyatini sifatlari va samarali amalga tadbiriq etish imkoniyatidir.

Ijtimoiy rivojlanish faqatgina ijtimoiy rollarning o'zgarishi bilangina emas, balki har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga yangi talablarning paydo bo'lishi bilan ham bog'liq. Maishiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohadagi yangi muammolar doimo kasbiy mezonlar dinamikasini talab qiladi va bu esa olimlarni kasbiy o'zini o'zi anglashga, shaxsning kasbiy shakllanishi muammosini nazariy g'oyalar bilan boyitishga intilishlarini kuchaytiradi. Tadqiqotlarda kasbiy sifatlari shaxs kasbiy rivojlanishning asosiy mezoni va mehnat sub'ektining yetakchi xususiyati sifatida talqin etilmoqda [3]. Mutaxassis mehnat sub'ekti sifatida xodimdan farqli ravishda uning o'zi faoliyat maqsadini qo'yadi, unga erishish yo'li va vositalarini aniqlaydi, faoliyat natijasiga nisbatan mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. U faoliyatni to'liq boshqaradi, turli amaliy vaziyatlardan chiqish yo'llarini biladi, faoliyatni tashkil qilish, uning o'zgarishi va rivojlanishini oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga egadir [4].

Kasbiy sifatlari muammosiga nisbatan qiziqishlarning ortishiga qaramasdan, bu fenomenning tabiati, tuzilishi, dinamikasi va funksiyalari haqidagi masalada yetarli darajadagi to'xtam mavjud emas. Bizningcha, buning eng asosiy sababi ushbu muammoning, xususan, shaxsning umumiy tuzilishidagi kasbiy sifatlari o'rnida qo'llaniluvchi ijtimoiy sifatlarning yetarli darajada qamrab olinmaganligi bilan bog'liq [7]. Kasbiy sifatlari muammosini tadqiq qilish uchun, eng avvalo, bu voqelik shaxs sifatlari tizimida qanday o'rin egallashini, qolaversa, shaxsning kasbiy va ijtimoiy o'zini o'zi anglashida qanday rol o'ynashini tushunib olish lozim.

Chet el manbalarida kasbiy sifatlari muammosini tadqiq qilishga nisbatan asosan ikkita yo'nalish ko'rsatib o'tilgan: kasbiy rivojlanish, shaxsning komil topishiga yo'naltirilgan va kasbiy shakllanishning ijtimoiy tomonlari va omillariga yo'naltirilgandir.

Jumladan, M.Argayl kasbiy sifatlari va individning kasbiy shakllanishi orasidagi bog'liqlik mavjudligi haqida fikr yuritib, quyidagilarni mujassamlashtirgan murakkab jarayon ekanligi ta'kidlagan: kasbiy treninglar, faoliyatni amalga oshirishga nisbatan qo'yiladigan talablar va standartlarni o'zlashtirish, mehnat jamoasi doirasida xulq-atvor me'yorlarini tushunish [74]. Aynan mehnat jamoasidagi boshqa shaxslar bilan o'zaro hamkorlik individga o'zi egallab turgan kasbning aniq standartlarini o'zlashtirish imkonini beradi. Kasbiy me'yorlarga amal qilish individga kasbiy sifatlarni o'zida shakllantirishga va o'z mavqeini uzoq vaqt saqlab turishga zamin



hozirlaydi. Kasbiy sifatlar ushbu yondashuvda uzoq vaqt davom etadigan kasbiy faoliyat bilan bog'liq kasbiy mavqega yaqin tavsifnoma sifatida izohlanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda kasbiy rivojlanishni tahlil qilishda asosiy e'tibor qaror qabul qilishga qaratiladi [9]. Shu bilan bir qatorda asosiy urg'u insonning kasbiy rivojlanishidagi muammoli vaziyatlarni qabul qilish va ularni bartaraf etish usullarini bilishini tahlil qilishga qaratiladi. Kasbiy o'zini o'zi anglash borasida qaror qabul qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishi, real imkoniyatlarni aniqlash, imkoniyatlarni qator mezonlar yordamida baholash (omad va omadsizlik tizimini baholash; mashhurlikni yoqtirmaslik, rag'batlantirish yoki qanoatlantirish; kasbiy kar'eradagi o'sish, ishlab chiqarish faoliyatidagi qiyinchiliklar, ta'lim va ish joyidagi mavqe), adekvat imkoniyatlarni tanlash va amalga oshirish, qarorlarning ijtimoiy dinamika bilan muvofiqligi va boshqalar. Shaxsiy rivojlanish va kasbiy shakllanish ijtimoiy kontekstining muvofiqligi muammosi kasbiy sifatlarini tadqiq qiluvchi jahon olimlarining ishlarida ham o'z aksini topgan. Tadqiqotimizda belgilangan vazifadan kelib chiqib, ichki ishlar tizimi xodimlarining kasbiy

### **NATIJALAR**

«Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi» metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko'ra «A» omil bo'yicha «muloqotchanlik» uch yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlarga nisbatan uch yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlarda 62,30% (+22,2%) ni, aksincha, muloqotga kirishishga qiynalish 37,70 % (-21,6%) tashkil qildi. Ko'rinib turibdiki, ichki ishlar xodimi faoliyati ish staji va tajribasining ortib borishi bilan bog'liq omil hisoblanadi. «B» omil bo'yicha «mantiqiy fikrlash» darajasi uch yil stajga ega bo'lganlarga nisbatan uch yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodim 64,61 % ni (-2,31%), «zaif fikrlash darajasi» esa uch yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo'lgan ichki ishlar xodimlarida 33,08% ni (-2,31%) ko'rsatdi. Lekin bu omil bo'yicha uch yil va uch yildan ko'p ish stajiga ega bo'lgan ichki ishlar xodimlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq oralig'i keskin tafovut qilmaganligini ko'rishimiz mumkin. «Mantiqiy fikrlash» qobiliyati ichki ishlar xodimi faoliyati uchun muhim jihat hisoblanib, bu qobiliyat yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunda bevosita intellektual rivojlanish jarayonning roli beqiyosdir. «Barqarorlik» va «beqarorlik» omillari bo'yicha ham uch yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlarda barqarorlik 65,38% ni (+6,92%), beqarorlik esa uch yilgacha 41,54% ni (+6,92%) tashkil etdi. Bundan ma'lum bo'ldiki, barqaror ijtimoiy munosabatlar yillar davomida taraqqiy qiladi. Keyingi mezon, ya'ni, «optimizm» va «pessimizm» omili bo'yicha uch yilgacha optimizm 62,30% ni (-16,16%), «pessimizm» esa uch yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan ichki ishlar xodimlarida 37,70% ni (+16,16 %) tashkil etdi. Optimizm, ya'ni yuqori kayfiyatda atrofdagilar bilan munosabatga kirishish uch yildan ortiq ish tajribasiga ega bo'lgan ichki ishlar xodimlarida ustun bo'lsa, pessimizm – ya'ni kayfiyatdagi o'zgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot





jarayonidagi uzilishlar uch yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlarda yuqori o'rin egallashi aniqlandi.

«K» omili bo'yicha «ijodiy tafakkuri rivojlanganlik darajasi» uch yilgacha 37,70 % ni (-32,30 %), realistlar esa 62,30 % ni (+32,30 %) tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, muloqot qilish davomida uch yilgacha realistik tafakkur uch yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarda esa voqealarga kreativ yondashish, erkin munosabat bildira olish va tahlil qilish kabi sifatlar rivojlanar ekan.

Keyingi omil bo'yicha «O'zini nazorat qila olish» omili uch yilgacha 89 nafar shaxsda 68,46 % ni, (-4,61 %) «O'zini nazorat qilishda qiynalish» esa uch yildan ortiq stajlarda 95 respondent ishtirokida 73,07 % da namoyon bo'ldi. So'nggi omil bo'yicha tahlil qilinganda «o'ziga yo'nalganlik» uch yildan ortiqish stajiga ega bo'lgan 64 nafar respondent ishtirokida 49,23 %ni «o'zgalarga yo'nalganlik» 46 nafar respondent bilan uch yilgacha 35,39 %ni tashkil qildi. Unga ko'ra kommunikatsion muomala jarayonida o'ziga bo'lgan munosabatning ustunligi uch yildan ortiq vaqt ichida to'liq shakllanadi, ungacha esa o'zgalarga ya'ni ijtimoiy muhitga e'tibor bevosita ustunlik qiladi (1-jadvalga qarang).

#### 1-jadval

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili

| Omillar |                               | uch yilgacha ish stajiga o'lgan xodimlar |            | uch yildan ortiq ish stajiga o'lgan xodimlar |            |
|---------|-------------------------------|------------------------------------------|------------|----------------------------------------------|------------|
|         |                               | soni                                     | %          | soni                                         | %          |
| «A»     | Muloqotchan                   | 53                                       | 40,07      | 81                                           | 62,30      |
|         | Muloqotga kirishishga ladigan | 77                                       | 59,30      | 49                                           | 37,70      |
|         | <i>Jami</i>                   | <i>130</i>                               | <i>100</i> | <i>130</i>                                   | <i>100</i> |
| «B»     | Mantiqiy fikrlaydigan         | 87                                       | 66,92      | 84                                           | 64,61      |
|         | Zaif fikrlaydigan             | 43                                       | 33,08      | 46                                           | 35,39      |
|         | <i>Jami</i>                   | <i>130</i>                               | <i>100</i> | <i>130</i>                                   | <i>100</i> |
| «C»     | Barqaror                      | 76                                       | 58,46      | 85                                           | 65,38      |
|         | Beqaror                       | 54                                       | 41,54      | 45                                           | 34,62      |
|         | <i>Jami</i>                   | <i>130</i>                               | <i>100</i> | <i>130</i>                                   | <i>100</i> |
| «D»     | Optimizm                      | 81                                       | 62,30      | 102                                          | 78,46      |
|         | Pessimizm                     | 49                                       | 37,70      | 28                                           | 21,54      |
|         | <i>Jami</i>                   | <i>130</i>                               | <i>100</i> | <i>130</i>                                   | <i>100</i> |
| «K»     | Ijodiy tafakkuri rivojlangan  | 49                                       | 37,70      | 91                                           | 70,00      |
|         | Realist                       | 81                                       | 62,30      | 39                                           | 30,00      |
|         | <i>Jami</i>                   | <i>130</i>                               | <i>100</i> | <i>130</i>                                   | <i>100</i> |
| «N»     | O'zini nazorat qila oladigan  | 89                                       | 68,46      | 95                                           | 73,07      |
|         | Nazoratda qiynaladigan        | 41                                       | 31,54      | 35                                           | 26,93      |
|         | <i>Jami</i>                   | <i>130</i>                               | <i>100</i> | <i>130</i>                                   | <i>100</i> |
| «M»     | O'ziga yo'nalgan              | 84                                       | 64,61      | 64                                           | 49,23      |
|         | O'zgalarga yo'nalgan          | 46                                       | 35,39      | 66                                           | 50,77      |



|      |     |     |     |     |
|------|-----|-----|-----|-----|
| Jami | 130 | 100 | 130 | 100 |
|------|-----|-----|-----|-----|

Demak, o'rganilgan empirik natijalar asosida ichki ishlar xodimlarining kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida ichki ishlar xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Kasbiy kompetentlik bilan bog'liq bo'lgan manbalarni tahlillariga asoslanib, tadqiqot ishimizda ichki ishlar xodimining bir qancha kompetentlik omillari ularning kasbiy kamoloti jarayoniga bog'liqligini tadqiq qilishga undadi. Bu esa kasbiy kompetentlikni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblangan emotsional intellektning ichki ishlar xodimi faoliyatida o'zaro aloqadorlikda rivojlanish jarayonini alohida tadqiq qilishni talab qiladi.

### XULOSA

«Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» mavzusidagi ish bo'yicha olib borgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligini nazariy-metodologik tahlili shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda ichki ishlar tizimi xodimlarida kasbiy kompetentlik omillarini shakllanishini tadqiq qilish va baholash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

2. Qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishning psixodiagnostik va psixokorreksion metodlarini to'g'ri tanlash kasbiy faoliyat samaradorligini muvaffaqiyatli kechishini ta'minlanishiga olib keladi.

3. Ichki ishlar tizimi xodimlaridagi kasbiy kompetentlik ko'rsatkichlarining namoyon etilishi va rivojlanishi muayyan darajada shaxs tiplari, faoliyat davomiyligi xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

4. Ichki ishlar tizimi xodimlarining kasbiy, ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentligi ko'rsatkichlari o'rtasida muayyan darajadagi korrelyatsion bog'liqliklarning mavjudligi mazkur kompetentlik mezonlari haqida ilmiy tasavvurlarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Psixotrening dasturidan avvalgi va keyingi natijalarning statistik jihatdan qiyosiy tahlili insonlarni tushunish, axloqiy ustanovkalar, muvaffaqiyat motivatsiyasi, emotsional barqarorlik, imidj va kommunikativ kompetentlik omillari bo'yicha muayyan darajadagi ijobiy natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari hamda ular asosida shakllantirilgan umumiy xulosalar quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif etish imkonini beradi:





1. Tadqiqotimizda aniqlanganidek, Ichki ishlar tizimi xodimlari faoliyatida kasbiy kompetentlik omillarini rivojlantirish uzoq davom etadigan jarayondir. Ayni paytda, bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar va huquq-tartibot tizimidagi o'zgarishlar davrida bo'lg'usi ichki ishlar tizimi xodimlarini kasbiy kompetentligini oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichlaridayoq shakllantirish zarur. Ularni nafaqat maxsus bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, balki, professional kompetentlikning psixologik komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar bilan ham tanishtirib borish tavsiya etiladi.

2. Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun ichki ishlar tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritish va ularning faoliyat davomiyligiga qarab kasbiy kompetentlik darajasini diagnostika qilib borish lozim.

3. Xodimlarni ahloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlashda psixodiagnostik, psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirishda ularning hissiy-irodaviy, kognitiv va kommunikativ motivatsiya imkoniyatlarini inobatga olish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Olimov L.Ya. [Psixodiagnostika va psixometrika asoslari](#). Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
2. Olimov L.Ya. [Umumiy psixodiagnostika](#). "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. [Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o`quv qo`llanma](#). "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. [Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi](#). O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
5. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. [O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari](#). Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
6. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. [O'smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati](#). Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
7. Olimov L.Ya. [Sotsialno-psixologicheskiy podxod k issledovaniyu konfliktov](#). Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2019 god, Vipusk 19. 379-381 st.
8. Olimov L.Ya. [Teoreticheskie osnovi pedagogicheskoy texnologii](#). Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2018 god, Vipusk 18. 163-165 st.
9. Olimov L.Ya. [Teoreticheskiy analiz problemi kreativnosti v psixologii](#). Vestnik integrativnoy psixologii jurnal dlya psixologov. Vipusk № 23, 2021 g. S 237-241.
10. Olimov L.Ya., Jumaev N.Z. [Pedagogicheskoe obucheniye pedagoga so](#)



[studentami](#). Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2017 god, Vipusk 15. 198-203 st.

11. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. [Diagnostika Upravlencheskix Sposobnostey](#). Vestnik integrativnoy psixologii jurnal dlya psixologov. Vipusk № 2, 2020 g. S 204-209.

12. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. [Psixologicheskie mexanizmi deviantnogo povedeniya](#). Psixologiya XXI veka. Yaroslavl, 2020. –S. 125-127.

13. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. [Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari](#). Psixologiya. Uchrediteli: Buxarskiy gosudarstvenniy universitet, 31-38.

14. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. [Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari](#). Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

15. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. [O'smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishining o'ziga xosligi](#). Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

16. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. [Ekstremal vaziyatlarda koping xulq-atvor va strategiyalar namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari](#). Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.